

## **UZBEKISTAN-SCO: DEVELOPMENT TENDENCIES OF MULTIPLE HUMANITARY COOPERATION**

### **ISOQULOVA MAFTUNA ABDUVALI QIZI**

Tashkent State University of Oriental Studies Faculty of Economics, Politics and Tourism of the East Department of Oriental Policy and International Relations Specialization in International Relations and World Politics 2nd year master's student

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada so`nggi besh yil ichida O`zbekistonning SHHT dagi o`rni va tashabbuslari hamda O`zbekiston va SHHT o`rtasidagi gumanitar aloqalar, hamkorlikning o`sish bosqichlari haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** O`zbekiston, SHHT, gumanitar hamkorlik, “xalq diplomatiyasi”, “shanxay ruhi”, turizm

O`zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlab xalqaro nufuzli tashkilotlar, davlatlar bilan keng ko`lamli faol tashqi siyosat olib bormoqda. Shunday tashkilotlardan biri bu – Shanxay Hamkorlik tashkiloti. O`zbekistonning SHHT bilan aloqalari yaqin to`rt- besh yil ichida yangi bosqichga ko`tarildi desak mubolag`a bo`lmaydi.

2017-yil 8-9 iyun kunlari Qozog`istonning Ostona shahrida bo`lib o`tgan sammitida Shavkat Mirziyoyev prezident sifatida ilk bor nutq so`zladi va gumanitar sohalarda bir qator takliflarni ilgari surdi: jumladan, SHHT ning doimiy faoliyat yurituvchi “Xalq diplomatiyasi” markazini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Ushbu tashabbusning amaliy ifodasi o`larоq 2018-yil 26-iyundan 3807-sonli “O`zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazi tashkil etilishini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida” gi prezident qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda markaz maqsad va vazifalariga alohida to`xtalib o`tildi. Qaror matniga ko`ra quyidagilar Markaz faoliyatining asosiy vazifalari va yo`nalishlari etib belgilandi:

ShHT mamlakatlari o`rtasida o`zaro ishonch va yaxshi qo`shnichilikni, millatlararo va dirlararo totuvlikni mustahkamlashga, sivilizatsiyalararo muloqotni kuchaytirishga ko`maklashish;

ShHT mamlakatlari bilan madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirishda, delegatsiyalarning o`zaro tashriflarini uyuştirishda ishtirok etish;

ShHT mamlakatlarining fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan yoshlar va xotinqizlar tashkilotlari o`rtasida do`stona hamkorlik muhitini qaror toptirish uchun shartsharoitlar yaratish;

ShHT mamlakatlari o`rtasida axborot sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga ko`maklashish, axborot resurslarini shakllantirish hamda ShHTning maqsadlari, vazifalari, faoliyatining ustuvor yo`nalishlari va asosiy prinsiplarini keng tushuntirish maqsadida ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

ShHT mamlakatlarining madaniy- gumanitar sohada erishgan yutuqlari to`g`risida axborot-taxliliy materiallar tayyorlash va ularni muntazam chop etib borish;

ShHT mamlakatlari va ularning xalqlarini bir-biriga yaqinlashtirish, o`zaro ishonch va yaxshi qo`shnichilik ruhini mustahkamlash maqsadida xalq diplomatiyasi vositalaridan foydalanish.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> (Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.06.2018-y., 07/18/3807/1401-son) <https://www.lex.uz>

2018 yil 9-10 iyun kunlari Xitoyning Sindao shahrida bo`lib o`tgan tashkilot rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi ulkan tarixiy voqeа bo`ldi. Mazkur sammit tuzilma faoliyatida yangi sahifani ochdi. Xitoy xalq Respublikasi raislik qilgan ushbu davrda tashkilot doirasida 160 dan ziyod tadbirlar amalga oshirildi va ularning ijobiy samarasи tashkilotning hamjihatlik va yakdillik poydevorini yanada mustahkamladi. Bundan tashqari Sindao sammitining yana bir tarixiy ahamiyati shundan iboratki, bunda ilk bor tashkilot “Shanxay sakkizligi” doirasida faoliyat olib bordi, ya`ni ushbu sammit tashkilotga yangi qo`shilgan davlatlar – Hindiston va Pokiston qo`shilganidan keying ilk sammit bo`ldi. Ushbu sammitda davlat rahbarlari gumanitar hamkorlikning xalqlar o`rtasida o`zaro anglashuv, ishonch va do`stlikni mustahkamlashdagi alohida o`rnini tasdiqlab, madaniyat, ta`lim, fan va texnika, sog`liqni saqlash, turizm va sport sohalaridagi ko`p qirrali hamkorlikni rivojlantirish tarafdori ekanini bildirdilar. SHHT kuzatuvchi va muloqot bo`yicha sherik mamlakatlari, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan ko`p tarmoqli hamkorlikni rivojlantirishga intilishi qayd etildi.<sup>2</sup> Ushbu sammitda O`zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashkilot a`zolari o`rtasida transport va logistika imkoniyatlarini oshirish, madaniy-gumanitar munosabatlarni mustahkamlash, yoshlarni ekstremizm g`oyalaridan himoyalash, turizm salohiyatini oshirish kabi masalalarda bir qator taklif va mulohazalarni ilgari surdi. Buning amaliy ifodasi sifatida esa 2018-yil 28-iyunda 3815-sonli prezident qaroriga asosan Samarqand shahrida “Ipak yo`li” xalqaro turizm universiteti ochildi. Mazkur universitet Markaziy Osiyoda turizm sohasidagi birinchi universitet hisoblanadi<sup>3</sup>. Ushbu universitet bugungi kunga kelib SHHT mamlakatlari uchun turizm sohasida yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash bo`yicha muvofiqlashtiruvchi maskanga aylanib ulgurdi.

2019-yil 13-14 iyun kunlari Qирғизистонning Bishkek shahrida tashkilot rahbarlarining navbatdagi 19-majlisi bo`lib o`tdi. Ushbu sammit ham gumanitar aloqalarni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega bo`ldi. Sammit yakunida jami 22 ta hujjat imzolandi. Ushu imzolangan hujjatlar ichida madaniy-gumanitar hamkorlik masalalarini o`z ichiga olgan hujjatlar ham mavjud. Jumladan,

SHHT kotibiyati va Jahon turistik tashkiloti o`rtasida o`zaro anglashuv memorandumini imzolash to`g`risidagi qaror;

SHHT ga a`zo davlatlarning vakolatli organlari o`rtasida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi hamkorlik to`g`risidagi bitim;

2019-2021 yillarda SHHT ga a`zo davlatlarning sog`liqni saqlash sohasida hamkorlikni rivojlantirish bo`yicha asosiy chora-tadbirlar rejasи;

SHHT kotibiyati va BMT ning insonparvarlik yordamlarini muvofiqlashtirish bo`yicha idorasi o`rtasida o`zaro anglashuv memorandumi<sup>4</sup>.

Bishkek sammitida davlatimiz rahbari doimgidek bir qator ilgo`r takliflarni bildirdi. Shavkat Mirziyoyev yana bir yaxshi an`anaga asos solish taklifi bilan chiqdi. Bu - har yili tashkiloitda raislik qiluvchi mamlakatdagi shaharlardan birini “SHHT ning sayyoohlilik va madaniyat poytaxti” deb e`lon qilish tashabbusidir. Prezidentimiz ta`biri bilan aytganda “ SHHT shahar va mintaqalarining tarixiy-madaniy merosini ommalashtirish va turistik salohiyatini yanada to`liq namoyon etish juda muhim”. Bishkek shahrida bo`lib o`tgan SHHT ning Yoshlar kengashi yig`ilishida ilgari surilgan tashabbuslardan kelib chiqqan holda, SHHT ga a`zo mamlakatlar yoshlari o`rtasidagi hamkorlik munosabatlariga doir

<sup>2</sup> <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-s-11-06-2018>

<sup>3</sup> <https://www.univ-silkroad.uz/uz/news/smi-o-nas/item/543-samarqandda-ipak-yo`li-xalqaro-turizm-universiteti-ochildi>

<sup>4</sup> <https://qalampir.uz/uz/news/bishkeksammitiimzolandi>

2019-2020 yillarga mo'jallangan dasturning 5 ta loyihasi o'zbekistonda amalga oshirilishiga kelishildi. Xususan, "Startaplar forumi", "PROlogue" V xalqaro kinofestivali, "Do'stlik uchun!" velomarafoni, SHHT yoshlarining qishki oromgohi, havaskor yoshlarning futbol bo'yicha birinchi championati va voleybol bo'yicha turnirlar Toshkent va Samarqand shahrida o'tkazildi.

Dunyodagi mavjud epedimoligik vaziyatni inobatga olgan holda 2020-yil 10-noyabr kuni SHHT a'zo davlatlar rahbarlarining navbatdagi majlis videoanjuman shaklida bo'lib o'tdi. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin raisligida o'tgan ushbu sammitda prezidentimiz ham ishtirok etdi va nutq so'zladi. Shavkat Mirziyoyev Shanxay Hamkorlik Tashkiloti o'z taraqqiyotining prinsipial jihatdan yangi bosqichida turganini, umumiyligini qadriyatimiz, birlashtirishga intilishimiz, madaniyatlar xilma-xilligiga hurmat ifodasi bo'lgan ko'p tomonlama hamkorlikning noyob tajribasi – "Shanxay ruhini" mustahkamlash har qachongidan ham muhim ekanligini alohida ta'kidladi.

2020 yil 29 dekabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2021 yilda mamlakatimizning tashqi siyosatini amalga oshirishda bir qator vazifalarga ustuvor ahamiyat berilishi aytib o'tildi. Shular qatorida 2021-2022 yillarda SHHT tashkilotiga O'zbekiston raislik qilish jarayoniga jiddiy tayyorgarlik ko'rish masalasiga ham alohida urg'u berildi<sup>5</sup>.

2021-yil Tojikistonning Dushanbe sammiti bo'lib o'tdi. Ushbu sammit murakkab epidemiologik vaziyatdan so'ng offline shaklida tashkil qilingan sammit bo'ldi. Chuni 2020 yilgi sammit videoanjuman shaklida bo'lib o'tgandi. Ushbu sammitda SHHT tashkil topganligining 20 yillik yubileyi nishonlandi. Ushbu vaqt oralig'ida tashkilot 8ta a'zo, 4 ta kuzatuvchi va 6 ta muloqot uchun hamkor davlatlarni birlashtirdi. Boshqacha aytganda, tashkilot Yevroosiyoning 2/3 qismini qamrab oldi. Bu dunyo aholisining deyarli yarmini tashkil qiladi. Dushanbe sammitida ushbu nufuzli tashkilotga 2021-2022 yillarda raislik qilish O'zbekistonga o'tishi to'g'risida qaror qabul qilindi. Sammitda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizning SHHT raisligidagi ustuvor vazifalari bayon qilindi. Belgilangan vazifalar orasida SHHT faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi "richag" sohalaridan biri madaniy-gumanitar sohada ham alohida vazifalar ko'rsatib o'tildi. Bular:

SHHT ning nufuzi va salohiyatini yanada oshirish;

Kambag'allikni kamaytirish va oziq-ovqat xavfsizligi sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirish;

SHHT ning xalqaro axborot xavfsizligi bo'yicha ekspertlar forumini ta'sis qilish;

SHHT ning Ezgu niyat elchisi institutini joriy qilish;

Turizm sohasida hukumatlararo bitimni ishlab chiqish;

Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishni nazarda tutuvchi "Yo'l xaritasi" ni qabul qilish. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida hamkorlarimiz bilan birlashtiruvchi "richag" sohalaridan biri madaniy-gumanitar sohada ham alohida vazifalar ko'rsatib o'tildi.

Ushu sammitda turizm sohasiga alohida urg'u berilganliga bir qator sabablar mavjud. Chunki COVID-19 infeksiyasi tarqalishidan eng ko'p zarar ko'rgan sohalardan biri bu, shubhasiz, turizm sohasidir. Pandemiya sharoiti turli murakkabliklar va muammolarga sabab bo'ldi, biroq shu bilan birga zamонавий axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq yangi imkoniyatlarni taqdim etdi. SHHT ga a'zo davlatlarning turizm kun tartibidagi muhim voqeasi – har yili bir marta SHHT ga raislik qiluvchi mamlakat shaharlaridan birini turistik va madaniy poytaxti sifatida e'lon qilish

<sup>5</sup> <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi kengashining 681-IV-sonli qarori

<sup>6</sup> <https://uzreport.news/politics/shhtning-tojikistondagi-sammitida-shavkat-mirziyoyev-nutq-so'zladi>

amaliyotini yo`lga qo`yish ehtimolidir. Bu orqali tashkilot davlatlari aholisi orasida turistik qiziqishni yanada orttirishga erishish mumkin bo`ladi. Shu nuqtai nazardan, "SHHT ning sakkiz mo`jizasi" loyihasi doirasida SHHT mamlakatlarining asosiy diqqatga sazovor joylari belgilab olinadi. Mazkur loyihaning asosiy g`oyasi shundaki, har bir davlat yuqori darajali sayohatni tashkil qilish maqsadida diqqatga sazovor joylardaidan birini tavsiya etadi. Xususan, Hindistonning "Birlik" haykali, Qozog`istonning tamg`ali arxeologik majmuasi, Qirg`izistonning Issiqko`l ko`li, Xitoyning Damin imperatorlik saroyi, Pokistonning Lahor shahridagi Boburiylar merosi, rossiyaning Oltin uzuk, Tojikistonning "Navro`z" saroyi, O`zbekistonning "Poyi-Kalon" me`moriy mujmuasi shular jumlasidandir<sup>7</sup>.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki SHHT vujudga kelgan davridan to hozirgi kungacha 20 yillik tarixiy davrni boshidan kechirdi. Shanxay Hamkorlik tashkilotining asoschi mamlakatlaridan biri sifatida O`zbekiston ushbu tashkilotga a`zo bo`lgan boshqa mamlakatlar bilan barobar SHHT ning rivojlanish strategiyasini belgilaydi. Bu yo`nalishda aynan mamlakatimiz sa`y-harakatlari bilan tashkilot ish boshlagan 2001-yildan e`tiboran uning faoliyatini takomillashtirish, tashkilot ishtirokchilari, shuningdek, boshqa umumbashariy va mintaqaviy institutlar o`rtasida samarali hamkorlikni yo`lga qo`yish va mustahkamlash borasida salmoqli muvaffaqqiyatlarga erishildi. O`zbekiston tashkilotning asoschi davlatlari qatorida har yilgi sammitlar, tashkilot doirasidagi loyihalar, turli darajadagi uchrashuvlarda doimiy faol ishtirok etib kelmoqda. Dunyo hamjamiyati, xalqaro tashkilotlar hamda tashkilotga a`zo davlatlar ham SHHT ga bu yil O`zbekistonning raislik qilishidan juda katta tarixiy yangiliklarni kutmoqda. 2019-dekabr oyida Xitoyning Uxan provinsiyasidan boshlanib 2020 yilda dunyoning barcha davlatlariga tarqagan COVID-19 virusi va dunyodagi mavjud emedimologik vaziyat tashkilot a`zolari oldiga bir qator hal qilinishi lozim bo`lgan muhim masalalarni ko`rdi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan shunday murakkab vaziyatda ham tashkilotga a`zo davlatlarga gumanitar yordamlar jo`natilganligi (hattoki Xitoy Xalq Respublikasi ga ham) O`zbekistonning SHHT dagi o`rnini va nufuzini yana bir bor ko`rsatdi. Prezidentimiz ta`biri bilan aytganda "Biz kuchli bo`lsak Shanxay hamkorlik tashkiloti ham kuchli bo`ladi".

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.06.2018-y., 07/18/3807/1401-soni  
<https://www.lex.uz>
2. <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-s-11-06-2018>
3. <https://www.univ-silkroad.uz/uz/news/smi-o-nas/item/543-samarqandda-ipak-yo`li-xalqaro-turizm-universiteti-ochildi>
4. <https://qalampir.uz/uz/news/bishkeksammitiimzolandi>
5. <https://lex.uz/> O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi kengashining 681-IV-soni qarori
6. <https://uzreport.news/politics/shhtning-tojikistondagi-sammitida-shavkat-mirziyoyev-nutq-so`zladi>
7. [https://dunyo.info/uz/site/inner/moxi\\_ekperti\\_turizm\\_shht\\_mamlakatlari\\_taraqqi\\_yoti\\_drayveri-Rex](https://dunyo.info/uz/site/inner/moxi_ekperti_turizm_shht_mamlakatlari_taraqqi_yoti_drayveri-Rex)

<sup>7</sup> [https://dunyo.info/uz/site/inner/moxi\\_ekperti\\_turizm\\_shht\\_mamlakatlari\\_taraqqi\\_yoti\\_drayveri-Rex](https://dunyo.info/uz/site/inner/moxi_ekperti_turizm_shht_mamlakatlari_taraqqi_yoti_drayveri-Rex)